

## Yozma Va Og‘Zaki Adabiyotning O‘Zaro Bog‘Liqligining Ayrim Jihatjari

*Mirzoyev M.K.<sup>1</sup>, Axmadjonov P.M.<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yozma va og‘zaki badiiy adabiyotning ba’zi bog‘liqlik jihatlari, ularning umumiylklari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil va tadqiq qilingan.

**Kalit so‘zlar:** og‘zaki va yozma adabiyot, o‘zaro ta’sir, folklor, badiiy san’at, yozma asarlar, badeiy obraz va.

Jahon adabiyotshunosligida yozma va og‘zaki adabiyotning o‘zaro bog‘liqligi borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi kunda ham bu mavzu zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb va munozarali masalalaridan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarning ko‘pi, asosan, og‘zaki va yozma adabiyotning o‘zaro ta’siri va bir-biridan bahramandligi, ya’ni xalq og‘zaki ijodining adabiyotga ta’sir yoki, aksincha, yozma adabiyotning xalq og‘zaki ijodiga ta’siri masalalarini o‘z ichiga oladi.

Akademik V.V.Vinogradovning ta’kidlashicha: "Xalqning og‘zaki badiiy ijodi va uning tili buyuk birlashtiruvchi madaniy kuch bo‘lib xizmat qiladi"<sup>3</sup>. A.M.Novikovaning xulosasiga ko‘ra: "Har bir xalq adabiyoti va folklorining rivojlanish tarixi milliy badiiy san’atning bir-biri bilan ko‘pgina tarixiy umumiylklari mavjud bo‘lgan ikki mustaqil sohasining paydo bo‘lishi va tarixiy rivojlanishi jarayonidir"<sup>4</sup>. Darhaqiqat, har bir xalqning yozma va og‘zaki adabiyoti bevosita va uzlusiz munosabatda bo‘lib, ular bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini takomillashtiradi. Professor S.Jukas: "Folklor va badiiy adabiyotning bir zamon va makonda mavjudligi nafaqat Gomer va Dante bir-birining o‘rnini egallamasligini, balki ularning bir tarixiy davrda yonma-yon va fikrdosh bo‘lishi, so‘z san’atining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki qutbini yaratishlari mumkinligini ham anglatadi", deya to‘g‘ri ta’kidlaydi<sup>5</sup>.

Eron adabiyotshunosi Ali Faraj folklor va adabiyotning aloqadorligi va ta’sirini o‘rganish asnosida (Eronlik mashhur shoir Qaysar Aminpur ijodi misolida) shunday xulosaga keladiki, folklor va adabiyot qayerda bo‘lmasin, xoh Eron, xoh Angliya yo Rossiyada, bir o‘lkada, bir tilda va bir milliy tarix doirasida yuzaga kelib, rivojlanganligi uchun ular har jihatdan bir-biriga juda yaqindir<sup>6</sup>.

Adabiyot va milliy madaniyat masalasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat nuqtai nazaridan qimmatli tadqiqotlar olib borgan taniqli tojik adabiyotshunosi Nurzoda Nozim tojik adabiyotining milliy madaniyatdagi o‘rni masalasini muhim tadqiqot predmetiga aylantirib, shunday xulosaga keladi: "Umuman olganda, adabiyot fikr va ijodning quyidagi uch ko‘rinishida shartli ravishda madaniy maydonga kirib, madaniy-badiiy o‘ziga xoslikni yaratish jarayonida ishtirok etgan: an‘anaviy-arxaik shakl, diniy-o‘rta asrlar formati va dunyoviy-zamonaviy tizim doirasi. Bu tafakkur namunalarining har biri madaniy muhitga adabiy-badiiy ta’sir ko‘rsatish davrlari va bosqichlarini aks ettiradi, umuman olganda, adabiyot va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘zida mujassam etadi"<sup>7</sup>.

<sup>1</sup> Far.DU tilshunoslik kafedrasi katta o‘qituvshisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<sup>2</sup> Far.DU tilshunoslik kafedrasi o‘qituvshisi

<sup>3</sup> Виноградов В. Великий русский язык. – М., 1945. – С. 100.

<sup>4</sup> Новикова А.М. Фольклор и литература. – М., 1982. – С. 3.

<sup>5</sup> Жукас С. О. Соотношение фольклора и литературы. – М.: Наука, 1982. – С. 8.

<sup>6</sup> Фарадж А.В. Взаимодействие и взаимовлияние фольклора и литературы. <https://www.dissercat.com/content/>

<sup>7</sup> Нурзода Н. Чойгоҳи адабиёти тоҷикӣ дар фарҳанги миллӣ. <https://ravshanfikr.tj/>.



I.S.Braginskiy eramizdan avvalgi birinchi ming yillik oxiri va eramizning birinchi ming yilliklari hamda o‘rta asrlar fors-tojik adabiyotida og‘zaki adabiyot unsurlarining aks etishini o‘rganib, quyidagi xulosaga keladi: «Xalq og‘zaki badiiy ijodining unsurlari yozma asarlarda asosan ikki xil shaklda namoyon bo‘ladi: a) adabiy asarlarda, odatda, xalqning orzu-umidlari, g‘oyalari, ruhiyatini o‘zgartirilgan shaklda ifodalovchi, haqiqatni haqqoniy va real aks ettiruvchi xalq tendensiyasi sifatida; b) syujetlar, obrazlar, xalq og‘zaki ijodi tasvir vositalarini badiiy qayta ishlangan shaklda<sup>8</sup>.

Tojik xalq og‘zaki ijodi tadqiqotchilar V.Asrори и R.Amonov fikrlariga ko‘ra, yozma adabiy asarlarda xalq og‘zaki ijodi unsurlarini aks ettirishning bu ikki usuli bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda adabiyotda xalqchilik va milliylikni vujudga keltiradi<sup>9</sup>. Shu nuqtai nazardan qaraganda, og‘zaki va yozma adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik, asosan, ikki jihatdan muhim va manfaatli deyish mumkin: a) xalq madaniyati unsurlaridan ijodiy foydalanish she’riyatning badiiy-estetik, g‘oyaviy qimmatini oshirib, badiiy asarlarda xalqchil va milliy ruhni ta’minlaydi hamda she’riyat va shoир yuksalishida xizmat qiladi; b) xalq madaniyati unsurlari adabiyot daholarining ijodi orqali dunyoga taqdim etiladi, aynan yozma adabiyot og‘zaki adabiyotni unutilib, yo‘qolib ketish xavfidan saqlaydi.

Jahon adabiyoti tadqiqotchilar, nazariyotchilar ham og‘zaki va yozma adabiyot o‘rtasidagi umumiylikni ko‘rsatish bilan birga ular orasidagi farqni ham alohida ta’kidlaganlar. Avvalo, bu ikki turdagи badiiy-estetik dunyoqarashning nomidan ham ma’lumki, birinchisi (og‘zaki) xalq xotirasida saqlanib qoladi va xalq roviylari va san’atkorlari orqali avloddan-avlodga o‘tib keladi. Ya’ni bu naql (bayon) shaklida, ikkinchisi yozma shaklda bo‘lib, insoniyatning eng yaxshi ixtirosi – kitob orqali tarqaladi. Bolgar olimi B.Nichev folklor va badiiy adabiyot o‘rtasidagi eng muhim farqni kommunikatsiya bo‘limidagi o‘zgaruvchanlik, variantlilik va variantsizlikda deb biladi<sup>10</sup>. Darhaqiqat, variantlilik og‘zaki adabiyotga xosdir: “...folklor asarlari muallifning noma'lumligi, og‘zaki tarzda yaratilganligi, og‘izdan og‘izga o‘tishi natijasida turli variant-nusxalarga ega bo‘ladi”<sup>11</sup>. Qolaversa, mazmun va g‘oyalar rang-barangligi, mavzu bir xilligi nafaqat bir xalq og‘zaki adabiyotida, balki turli xalqlar folklori orasida ham ko‘p uchraydi. Chunonchi, barcha xalqlar og‘zaki ijodida o‘gay qizning o‘gay onadan zulm ko‘rishi, o‘gay qizning sehr va mo‘jizalar yordamida ozod va baxtli bo‘lishi haqida rivoyat mavjud. Yevropa xalqlari ertaklarining qiyosiy tadqiqi xulosalariga ko‘ra, rus ertaklari syujetlarining uchdan ikki qismi boshqa xalqlar folklarida ham mavjud<sup>12</sup> ekanligi tasdiqlangan.

Aynanlik va o‘xshashlik o‘zbek va tojik xalq og‘zaki ijodida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Bizningcha, tojik va o‘zbek xalqlarining madaniy mushtarakligi haqida bu yerda to‘xtalishga hojat yo‘q. O‘zbek va tojik xalqlarining tarixi, milliy qadriyatlari, turmush tarzi, ijtimoiy va tabiiy muhiti, urf-odatlari, umuman, og‘zaki adabiyoti, xalq madaniyati bilan tanishish ularning haqiqatan ham, ikki tilda so‘zlashuvchi bir xalq ekanligini isbotlaydi. Xuddi shu madaniy mushtaraklik, tarix va taqdir birligi ular o‘rtasidagi yagona folklor va adabiyotni yaratdi. Bu da’voni isbotlash uchun bu ikki qardosh xalqning rivoyatlari, hikmat va maqollari, bayt va qo‘sishlari, laparlari, urfu odatlari, diniy va xalq e’tiqodlari haqida mulohaza qilinsa, hazrat Jomiyning “Haft avrang”i va “ Mir Alisher Navoiyning “Xamsa”sini eslashning o‘zi kifoyadir.

Shu o‘rinda yana bir masala to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bilamiz. Yuqorida o‘zgaruvchanlik va variantlilik og‘zaki adabiy asarlarga xosligi ta’kidlangan edi. Xo’sh, tojik va o‘zbek yozma adabiyotida o‘nlab “Layli va Majnun”, “Xusrav va Shirin” va boshqa qissalarning mavjudligini qanday izohlash mumkin? To‘g‘ri, fors-tojik va o‘zbek adabiyotida (Navoiyning “Layli va Majnun<sup>13</sup>”) Nizomiydan Shohingacha bo‘lgan xalq ertaklari asosida o‘nlab “Layli va Majnun” qissalari yaratilgan. Lekin ular bir-birining varianti yoki nusxasi emas, har biri o‘ziga xos va adabiyot tarixida o‘z o‘rniga ega asarlardir. Navoiyning dostonchilik sohasidagi ijodiy uslubi va san’atining o‘ziga xosligini ishonchli dalillar asosida isbotlagan atoqli o‘zbek adabiyotshunos, professor H.Jo‘rayev ham ushbu

<sup>8</sup> Брагинский И. С. Из истории таджикской народной поэзии. – М., 1956, – С. 12

<sup>9</sup> Асрорӣ В, Амонов Р. Эҷодиёти даҳанакии ҳалқи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1980. – С. 16

<sup>10</sup> Ничев. Б. Увод в южнославянский реализм. - В кн. Проблемы фольклора . – М., 1975. – С. 44.

<sup>11</sup> Асрорӣ В, Амонов Р. Эҷодиёти даҳанакии ҳалқи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1980. – С. 9.

<sup>12</sup> Ко‘rsatilgan manba, – В.13.

<sup>13</sup> Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва ҳалқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Фан, 1979. – С.13.



xulosalarni tasdiqlaydi<sup>14</sup>. Akademik Akbar Tursunov ilmiy va badiiy kashfiyotlar o'rtasidagi farq haqida fikr yuritib, shunday xulosaga keladi: "...ilmiy kashfiyotlar takrorlanishi mumkin; fanning kuchi ham mana shu jihat bilan o'ziga xos tarzda gavdalanadi. Badiiy ijod, aksincha, takrorlanmasligi kerak, chunki ijodkor tasvir obyekti individual tarzda yondashadi. Ana shu nuqtai nazardan fanda masalaning haqiqati bir marta kashf qilinadi va aniqlanadi, agar u ataylab takrorlansa, o'ziga boshqa nom oladi: plagiats (xo'shachini ittihol). San'at sohasida bir mavzuda son-sanoqsiz asarlar yozish mumkin. Ko'pgina syujetlar takrorlanadi, lekin bu yangi asarning qiymatini kamaytirmaydi<sup>15</sup>.

Adabiyotshunoslarning qarashlariga ko'ra, xalq og'zaki ijodining o'ziga xosligi hayotni aks ettirish, uni tipiklashtirish, ya'ni badiiy adabiyotning o'ziga xos metodlaridan farq qiluvchi badiiy tasvir usulida namoyon bo'ladi<sup>16</sup>.

Xulosa, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, og'zaki va yozma adabiyot o'z madaniyat tarixiga ega xalqning ikki turdag'i badiiy-estetik dunyoqarashidir, deyish mumkin. Yozma va og'zaki adabiyot o'rtasidagi bog'liqlikning asosiy ahamiyati shundaki, bevosita aloqa va o'zaro ta'sir natijasida badiiy asarlarning badiiy-g'oyaviy qiymati ortib boradi, shoirlar she'rlerida milliy ruh, mahalliy kolorit, an'anaviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ta'kidlanadi. Og'zaki va yozma adabiyot o'rtasida adabiy janrlar (lirik, epik, dramatik), mazmun va g'oya jihatidan umumiy jihatlari ko'p bo'lishiga qaramay, farqlar va o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu farq, avvalo, tilda (folklor – jonli so'zlashuv tili va shevalarida) namoyon bo'lsa, ikkinchidan, og'zaki adabiyot namunalarining muallifi xalq bo'lib, ularda avlodlar va davrlarga xos estetik dunyoqarash va ijodiy san'at va mahorat mahsuli namoyon bo'ladi. Variantlilik og'zaki adabiyotga xos bo'lib, yozma badiiy adabiyotda kuzatilmaydi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Виноградов В. Великий русский язык. – М., 1945.
2. Новикова А.М. Фольклор и литература. – М., 1982.
3. Жукас С. О. Соотношение фольклора и литературы. – М.: Наука, 1982.
4. Фарадж А. В. Взаимодействие и взаимовлияние фольклора и литературы. <https://www.dissercat.com/content/>
5. Нурзода Н. Чойгоҳи адабиёти тоҷикӣ дар фарҳанги миллӣ. <https://ravshanfikr.tj/>.
6. Брагинский И. С. Из истории таджикской народной поэзии. – М., 1956.
7. Асрорӣ В, Амонов Р. Эҷодиёти даҳанакии ҳалқи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1980.
8. Ничев. Б. Увод в южнославянский реализм. - В кн. Проблемы фольклора . – М., 1975.
9. Асрорӣ В, Амонов Р. Эҷодиёти даҳанакии ҳалқи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1980.
10. Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва ҳалқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Фан, 1979.
11. Жӯраев Ҳ. Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари: Филол.фан.докт. ...дисс. – Тошкент: Ўз.Р ФА ТАИ, 2008. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. – Тошкент: Фан, 2008.
12. Турсунов А. Қирони саъд. – Душанбе: Ирфон, 1986.

<sup>14</sup> Жӯраев Ҳ. Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари: Филол.фан.докт. ...дисс. – Тошкент: Ўз.Р ФА ТАИ, 2008. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. – Тошкент: Фан, 2008.

<sup>15</sup> Турсунов А. Қирони саъд. – Душанбе: Ирфон, 1986. – С. 118.

<sup>16</sup> Асрорӣ В, Амонов Р. Эҷодиёти даҳанакии ҳалқи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1980. – С.10.

